

TANGRICHILIKNING BOSHQA DINLAR BILAN MUNOSABATI.

Akram Jo‘rayev Namozovich

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti “Falsafa”
kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tangrichilikning boshqa dinlar munosabati tadqiq etilgan. Xususan, tangrichilikdagi diniy bag‘rikenglik dinshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Alloh”, “Qarluq”, “Ko‘ktangri”, “Tangri”, “Turk Tangrisi”, “Jo‘chi”, “Moyunchur”, “Islom”, “Xristianlik”, “Buddaviylik”, “Yahudiylik”, “Moniylik”, “Diniy bag‘rikenglik”, “Bey-xu”.

KIRISH (INTRODUCTION)

Ma’lumki, Markaziy Osiyo insoniyat tamadduni beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu hududda diniy har xillikning tarixiy ildizlari uzoq-uzoq zamonlarga borib taqaladi. Ayni paytda bu makonda ulug‘ ajdodlarimiz – turkiy xalqlar ming yillardan beri yashab keladi. Mazkur makon o‘zining o‘ta muhim geografik va geopolitik joylashuvi nuqtai nazaridan turli madaniyatlar va tamaddunlarning to‘qnashuv maydoniga hamdir. Sharqu G‘arbni bog‘lovchi ushbu mintaqada azal-azaldan turli dinlarning doimiy aloqa maydoniga ham aylangan. Ajdodlarimiz turli tarixiy davrlarda u yoki bu darajada turfa dinlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik kabi) dinlarga e’tiqod qilgan bo‘lsalar-da, ular orasida hech qaysi tangrichilik dini darajasida muhim ahamiyat kasb etmagan. Tarixiy manbaalarda tangrichilik dini miloddan avvalgi 2–ming yillik oxiri va 1–ming yillikda vujudga kelgan. Bu din qadimgi turkiy qabilalarning asosiy dini hisoblangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda dinshunoslardan L.N.Gumilyov, Hasan Ato Abushiy, Sadri Maksudi Arsal, Chronique de Michel le Syrien, V.I.Avdiyev, Usmon Turon, A.Ochidiyev, D.Rahimjonov, M.Alimova, asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tangrichilik diniga e’tiqod qilgan turkiylar yashaydigan Turkiston o‘lkasi Yevroсиyo hududining “yuragi” bo‘lib, sharqda Xitoy va Sariq dengiz sohillarida to g‘arbda Qora dengiz va Karpat tog‘larigacha, shimoldasov uq taiga o‘rmonlarida janubda Eron va Afg‘oniston hamda qisman daryosigacha bo‘lgan hududgacha cho‘zilgan edi. Qadimgi yunon-rim tarixchilari bu o‘lkani Skifiya, forslar Turon,

Xitoy tarixchilari esa “Bey-xu” deb atashgan. Endi turklar o’lkasiga boshqa dinlarning kirib kelishi va ularning tangrichilik dini bilan mubosabatlarini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Manbalarga ko‘ra, **xristianlikni** birinchilardan bo‘lib, Dunay bo‘ylarida yashagan turkiy bulg‘orlarning bir qismi VII asr boshlarida Vizantiyadan qabul qilgan. Bu vaqtarda bulg‘orlar xoni Orxan va uning jiyani Kubrat edi. Go‘dakligidayoq Vizantiyada garov sifatida jo‘natilgan Kubrat o‘sha yerda xristianlikni qabulq qiladi va grek qiziga uylanadi. Keyinchalik yurtiga qaytib xonlik qiladi va 641-yili vafot etadi. VII asr o‘rtalarida Xazarlar Bulg‘or O‘rdasini qulatgach, Kubratning uchinchi o‘g‘li Asparux Dunay daryosidan nariga slavyanlar yeriga o‘tib, o‘sha yerlarda 679-yili (boshqa manbalarda 680-yil) Bolgariya davlatiga asos soladi va xristianlikni davlat dini deb e’lon qiladi. Bu turklarning tangrichilikdan ilk marta boshqa dinga o‘tishi edi.¹

Xristianlikning Nestorian mazhabi bir vaqtlar Vizantiya ta’qibi ostida Eronda panoh topgan bo‘lib, keyinchalik Eronni arablar egallagach, dastlab Movarounnahrga, undan so‘ng bu yerdagi moniy va budda dinlari bilan birga sharqqa vashimoli-sharqqa, ya’ni, tangrichi turklar orasiga tarqaladi. Hatto, XI asrda Mo‘g‘ulistonda yashagan nayman va kerait qabilalari orasida ham bir qadar tarqaladi. Keyinchalik (asosan X-XI asrlarda) butun Markaziy Osiyoda asosan islomiyat tarqalgach, boshqa dinlar kabi bu yerlarda tarix sahnasidan o‘chib ketdi.

Yahudiylikni esa turkiy xazarlar 790-yili qabul qiladi. VII asr o‘rtalarida Turk xoqonligi qulashidan so‘ng tashkil topgan Xazar xoqonligi shimolda Volgabo‘yi bulg‘orlari yeridan to Orol bo‘larigacha, sharqda Ural (Yoyiq) daryosidan to g‘arbda Dnepr daryosigacha bo‘lgan hududlarda joylashgan edi. Savol tug‘iladi: Qanday qilib xazarlar yahudiylikni qabul qilishdi. Buning uchun tarixga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. 491-529-yillar oralig‘ida Eronda ko‘tarilgan g‘alayonlarda (mazdakchilar harakati nomi bilan mashhur) faol qatnashgan yahudiylar Xusrav I Anushervon davrida (531-579) quvg‘inga uchrab, Kavkazga qochadi va Turk xoqonligi yerlaridan panoh topishadi.

Keyinchalik xoqonlik qulab, uning bu yerlardagi xarobalarida Xazar xoqonligi tashkil topgach, yahudiylar turli usullar (savdo, hiyla, sovgva-salom va pora berish, go‘zal yahudiy qizlarini xazarlar xonlariga turmushga berish yoki ularning haramlariga jo‘natish orqali) xoqonlikda mustahkam o‘rnashib olganlar. VIII asr birinchi yarmida xoqonlik taxtiga onasi yahudiy bo‘lgan Bulan o‘tirib, 740-yilgi islom, nasroniylik va yahudiylik o‘rtasidagi munozaralar so‘ngida yahudiylikni afzal

¹ Безертинов Р.Н. Тэнгрианство – религия тюроков и монголов: научно-популярное издан., 2-е изд., доп. – Казань, Слово, 2004, С.268-269.

ko‘radi. Bizning fikrimizcha, bu munosabat xazar xoqonlarining Arab xalifaligi va Vizantiya bilan raqobati natijasida kelib chiqqan siyosiy sabablar natijasida kelib chiqqan bo‘lsa kerak.

Keyinchalik bu yerga imperator Romans zamonida (919-944) omonidan o‘tkazilgan diniy tazyiq va xristianlashtirish harakatidan norozi bo‘lgan boshqa yahudiylar ham Vizantiyadan (Forsdan ham) ko‘chib kela boshladilar. Hatto, keyinchalik yahudiylar jamoasi xoqonlarni taxtga o‘tqazadigan bo‘ldi. Lekin xuddi shu davrlarda qo‘shni islom madaniyatini qabul qilgan turkiylar ta‘sirida xazarlar orasida ham islomiyat tarqala boshlaydi. Qolaversa, yahudiylilik turkiy xalqlar mijoziga mos kelmaganligi sababli birozdan so‘ng yahudiylashgan hukumat va tangrichilikka e’tiqod qiluvchi turk aslzodalari o‘rtasida kurash boshlanib ketadi. Bu esa xoqonlikni ancha zaiflashtirib qo‘yadi.

Shu tariqa, Xazar xoqonlari, nafaqat o‘z davlati xalqi, balki qo‘shni turkiy xalqlar bilan ham munosabatlarini yomonlashtirib qo‘yadi. Bundan foydalangan rus knyazi Svyatoslav (964-972) 965-yili turkiy bijanak va o‘g‘uzlar yordamida xoqonlikni ishg‘ol qiladi. Keyinchalik yahudiy jamoasi islom va xristianlik ta‘sirida bu yerdan boshqa joylarga tarqalib ketadi yoki mahalliy xazarlar kabi ushbu dirlarni qabul qilishga majbur bo‘ladi. Lekin manbalarda XII asrda ham Darband yaqinidagi Samur shahrida yahudiy jamoalari bor ekanligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Bugungi kundagi yahudiylilikka e’tiqod qiluvchi qarayim turklari xazarlarning so‘nggi aymoqlaridir.²

Buddaviylik aslida turklar orasiga hammadan oldin kirib kelgan dindir. Kushon davlatida u Kanishka davrida (78-123) milodiy I asrdayoq kirib kelgan (Janubiy O‘zbekiston yerlariga) bo‘lsa-da, Turon dashtlariga asosan VIII-IX asrlarda kirib keldi. Ilgari Balx va Termiz atroflarida (10 dan ortiq) budda ibodatxonalar bo‘lgan esa, endi Sharqiy Turkiston va Yettisuv o‘lkasida ham paydo bo‘la boshladi. Har holda VII asrda O‘rta Osiyoga kelgan xitoylik budda rohibi Syuan Szyan bu yerda ko‘plab budda ibodatxonalarini uchratgan.³ Hatto bir rohibning ta‘sirida Topoxon (572-581) buddaviylikni qabul qiladi. Biroq uning mavqeい ham o‘smadi, din ham turklar orasida keng tarqalmadi. 626-yili Syuan Szyan qanchalik da’vat qilmasin, uni yaxshi kutib olgan G‘arbiy Turk xoqonligi hukmdori Tunyabg‘u xoqon (618-630) ham, xalqi ham tangrichilikni tashlab buddaviylikni qabul qilmaydi.⁴

Keyinchalik VIII asrda Sharqiy Turk xoqonligi hukmdori Bilga xoqon (716-734) ham O‘rxun vodiysida buddaviylik va daosizm dinlariga oid ibodatxona

² Безертинов Р.Н. Тэнгрианство – религия тюроков и монголов: научно-популярное издан., 2-е изд., доп. – Казань, Слово, 2004, С.269-270.

³Markaziy Osiyo dinlari tarixi. Mualliflar jamoasi (Yovqochev Sh. va b.) – T.: TDSHI. 2006, -67-b.

⁴ Boboyorov G‘. Tun yabg‘u xoqon. T.: Abu matbuot-konsalt, 2011. – 29-30-betlar.

qurish fikrini aqlli vaziri va qaynotasi To‘nyuquq bilan maslahatlashganda u shunday javob bergen ekan: “Turk xalqi soni jihatidan xitoy aholisining yuzdan biriga ham to‘g‘ri kelmaydi, turklar suv va o‘t izlab, doimiy manzilga ega bo‘lmaydi va muttasil askariy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lganligi uchun ham Xitoy davlatiga qarshi tura oladi.

Qudratli paytlarida biror narsalik bo‘lish uchun ilgarida yura oladi, zaif chog‘larida bosh tortib yashirinadilar. Tan xonadoni askari juda ko‘p, lekin ularni qo‘llaydigan o‘rni yo‘q. Buning ustiga Buddha va Lao-szi dinlari kishilarni jangari va kuchli emas, insonsevar va nochor qilib qo‘yadi.”⁵ Xon bu maslahatni ma’qullaydi. Shu tariqa buddaviylik turkiylar tomonidan qabul qilinmadni. Qolaversa, Bilga xoqonning o‘zi ham Xitoy va boshqa dinlar ta’siriga qarshi ehtiyojkorona munosabatda bo‘lar, ularning asorati xavfidan doimiy ogohlantirish orqali millatining milliy madaniyat va a’n’analarini, e’tiqodini himoyalashga intilardi. Lekin boshqa dinlarni turk xoqonlari hech qachon ta’qib qilmagan, o‘z hokimiyatlariga kiritilgan joylardagi aholining diniy e’tiqodlariga ham hurmat ko‘rsatganlar.

Xullas, buddaviylik turkiylarning, ayniqsa, ko‘chmanchi turkiylarning ruh va mijozlariga mos kelmaganligi uchun uncha keng tarqala olmadi. Faqat Sharqiy Turkistonda yashovchi uyg‘urlar orasida bir qadar tarqaldi va shu tariqa bir talay buddaviylik ta’limoti yoritilgan diniy asarlar hozirga qadar yetib kelgan. Biroq, bu yerda tangrichilik va boshqa dinlarning ta’siri bu din ta’siridan kuchliroq ediki, natijada buddaviylik bu yerda uzoq turolmay, Tibet, Hindixon, Yaponiya va boshqa Uzoq Sharq mamlakatlariga ko‘chishga majbur bo‘ladi. Hozirga qadar bu yerlarda yashovchi turkiylarga qarindosh elatlardan ba’zilari, masalan, buryatlar va mo‘g‘ullar shu dinga e’tiqod qiladilar.

Moniylik (manixeylik) – bu zardushtiylik, xristianlik va buddaviylik dinlarining sintezidan kelib chiqqan qurama din bo‘lib, asoschisi Moniy (asl ismi Surak Patik) bo‘lib, 216-276-yillarda yashagan. Dini o‘z vatani Bobilda (o‘sha vaqtarda Parfiya davlatiga kirgan) ommalashmagach, Xuroson, Turon, Hindiston va Sharqiy Turkistonda missionerlik ishlarini olib bordi va ushbu hududlarda asta-sekin moniylikjamoalari paydo bo‘la boshladi. Erondan sharqda joylashgan, oldingi Parfiyaga tegishli bo‘lgan yerlar, shuningdek, Markaziy Osiyo moniylikning ilk tarqalish hududlari hisoblanadi. VIII-IX asrlarga kelib, moniylik aynan shu hududlar orqali Sharqiy Turkiston va Sharqiy Osiyoga tarqaldi. Uyg‘ur, turk, sug‘diy, parfiy tillarda yozilgan ko‘pgina yodgorliklar moniylikbuyuk ipak yo‘li bo‘ylab tarqalib, jahon diniga aylanganligidan dalolat beradi. Moniylik keyinchalik

5 Н. Я. Бичурин [Иакинф]. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М-Л.: АН СССР, 1950. С. Том I , С. 274

Kushon imperiyasi (I-IV asrlar) hududiga ham kirib bordi. Bu haqda ko‘pgina tarixiy yozma manbalar dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda bu din milodning III asridan XV asrigacha mavjud bo‘ldi.⁶ Bu din taqdiri haqida vatandoshimiz va buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy shunday deb yozadi: “Islom shaharlarida Moniy dini tarafдорлari shu qadar ko‘p ediki, ularning hisobiga etib bo‘lmashdi. Musulmon davlatlaridan tashqarida ko‘pgina sharqiy turklar, Xitoy, Tibet va ayrim hindiyalar manixeylikka e’tiqod qilardi”.

Markaziy Osiyoda moniylikning yirik markazlari Marv va Samarcand bo‘lib, bu dinning Sharqsa tarqalishida ularning roli juda katta bo‘lgan. Sharqiy Turkistonga moniylik shu yerlardan kelgan bo‘lishi mumkin. 276(277)-yili Moniy Varaxran I tomonidan qatl qilingach, Sosoniylar davlatida moniylik ta’qiqlandi va moniylik jamoalari ta’qib qilinishda davom etdi va sharqda esa Xitoy, Uyguriston hamda ularning atrofidagi davlatlarda panoh topib, moniylik ta’limotini rivojlantirganlar.

Keyinchalik Arab xalifaligi Sosoniylar davlatini bosib olgach, islomiyat qarshisida dosh berolmay Turkistonga qochib keldilar va turk xoqonlaridan panoh topdilar. Dinlarini bu o‘lkada yoyib Buyuk Ipak yo‘li orqali Uzoq Sharqqa qadar yetdilar. Uygur davlati (745-840) asoschisi Moyunchur xoqon vorisi bo‘lmish Bugu xon (759-780) 762-yili Xitoy safarida moniy dini rohiblari bilan tanishib qoladi va ularni qaytishda Sharqiy Turkistonga olib keladi. Shu tariqa, islom va nasroniylik qarshisida tobora yo‘qolib borayotgan mazkur din yana jonlanadi. 763-840-yillarda Uygur xoqonligining rasmiy dini bo‘lgan edi.

Buddaviylik kabi bu din ham milliy ruh va tushunchalariga zid hisoblangan moniylik ta’sirida uygurlar jangovarligi ancha susayib qoladi. IX asr arab tarixchisi Johiz fikricha, avvallari o‘zлari har doim yenggan qorluqlardan endilikda yengila boshlaydi. Islom dini X asr o‘rtalarida Qoraxoniylar sulolasi davrida (X asr o‘rtalari – 1212) Turkistonda ham keng tarqalgach, moniylikni va xristianlikni bu yerdan ham siqib chiqardilar. Shunga qaramay, islom va Turkiston madaniyatining gullagan davri bo‘lmish X asrda ham bu ikkala din vakillarini Samarcand, Shosh va Tunkat shaharlarida bemalol uchratish mumkin edi. XIII asr sayyohi V. Rubruk Uyguristonda tangrichilik, budda, islom, xristianlik dirlari bilan bir qatorda moniylik dirlariga mansub turklarning bir joyda ahil yashayotganligini ta’kidlaydi. Sayyoohning aytishicha, Munkexon turli din vakillarining bahs-munozaralarini tinglagandan so‘ng: “Biz bir Tangriga, uning amri bilan yashayotganimizga va o‘lajagimizga ishonamiz”, deya buddaviy, moniylik va xristianlik ma’budlaridan ko‘ra ancha yuksak sifatlar egasi bo‘lgan yagona Tangriga e’tiqod qilishlarini aytadi.

⁶ Ochilidiyev A., D. Rahimjonov va b. Dinshunoslik asoslari. – T.: TIU. – 63-66-betlar.

Diniy bag‘rikenglik. Bir qarashda tangrichilik dini yahudiylik diniga o‘xshab millatchiroq tuyulishi mumkin. Lekin tarixiy ma’lumotlar buning aksini ko‘rsatadi.

VII asr boshlariida Arabiston yarimorolida paydo bo‘lgan **islom** dini shiddat bilan 651-yildayoq Turkistonning janubiy hududi Xurosonga (hozirda Turkmaniston, Afg‘oniston shimoli va Eron shimoli-sharqiga to‘g‘ri keladi), 705-715-yillar orasida Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy qo‘mondonligi ostida butun Movarounnahrni egallab, to Sharqiy Turkiston va Yettisuvgacha yetib keldi. Lekin shu yerda bu yurtlarning haqiqiy egalari bo‘lmish turklar tomonidan to‘xtatildi. Shunday bo‘lsa-da, bu ikki turk viloyatlari borasida salkam yuz yildan beri davom etib kelayotgan arab-turk raqobati 751-yili Tan imperiyasi qo‘shinlari Sharqiy Turkistonga bostirib kirganida ittifoqqa birikishiga monelik qilmadi. Shu tariqa, bu voqeadan so‘ng arablar egallamagan Movarounnahrning shimoli va shimoli-sharqiy hududlarida yangi turk davlati – Qarluqlar davlati vujudga keldi.

O‘ta millatchi Ummaviylar (661-750)dan keyin Abbosiylar(750-1258)ning kelishi va ularning mahalliy turk-sug‘d xalqi bilan kelishuvchilik siyosati, keyinchalik xalifalik lashkari safida turklarning ko‘payishi Turkistonda islomning yoyilishi zamin yaratdi.

Tangrichilikka e’tiqod qiluvchi turklarning islomga jamoa holida kirishi esa keyinchalik X asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Dastlab siyosiy andishalar tufayli islomni qabul qilmagan turkiy xazarlar keyinchalik qo‘shnichilik, savdo-sotiq va madaniy munosabatlar ta’sirida islomlashdilar. Ularning shimoldagi qo‘shnilari bo‘lmish Itil (Volga) bulg‘or turklari ham X asr birinchi yarmida yoppasiga islom dinini qabul qiladilar.

Eng e’tiborli hodisa 960-yili sodir bo‘ldi. Turkiy xalqlarning eng katta ikki qabilasi – qarluq va o‘g‘uzlarning birato‘la 200 ming chodir xalqi yoppasiga musulmonlikni qabul qilishdi. Bu juda katta ahamiyatga ega voqeа ediki, natijada islom dini turklarning milliy diniga aylana bordi va XI asrdan islom yalovi (bayrog‘i) arablardan turkiylar qo‘liga o‘tadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu xalqlar orasiga islomiyatni yoygan shaxs Sotuq Bug‘raxondir.

Keyinchalik butun dunyoni zir titratgan Chingizzon davrida islom olamiga bir qadar zarba berilgan bo‘lsa-da, uning vorislari davrida islomiyat ularning aksariyatining diniga aylandi-qoldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Jo‘ji ulusi xonlaridan eng birinchi islomni qabul qilgani Botuxonning ukasi Berkaxon (1257-1266/67) ekan. U islomni Najmuddin Kubroning shogirdlaridan biri Sayfiddin Boxarziy qo‘lida Xorazmda qabul qilgan. Shu tariqa, Dashti Qipchoq bir qismi aholisi bu dinga o‘tgan.⁷

⁷ O‘tamish Hoji ibn Muhammad Do‘stiy. O‘tamish Hoji tarixi. T.: O‘zbekiston, 2009 – 15-b.

Oltin O'rda (Jo'ji ulusi)ning to'liq islomga o'tishi esa O'zbekxon (islomiy ismi G'iyyosiddin Muhammad) (1312-1342) davrida 1314-yilga to'g'ri keladi. Utangrichilik qamlari va islom shayxlarining munozaralaridan so'ng islomni qabul qilgan.⁸

XIV asrdagi buyuk arab sayyohlaridan biri ibn Battuta Chig'atoy ulusida birinchilardan bo'lib Tarmashirinxon (1326-1334) qabul qilganligini va uning insoniy fazilatlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.⁹

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, turklar qolgan millatlar singari islomiyatni majburan emas, balki o'z xohishlari bilan qabul qildilar. Buning birinchi sababi, islomiyatning afzalligi bo'lsa, ikkinchisi tangrichilik eski aqidalari islom dini va uning ta'limotiga ancha yaqin ekanlidigkeit. Chunki islom dini turkiylar ruhiga muvofiq edi. Darhaqiqat, turk Tangrisi koinot va maxluqotning xoliqi, butun hodisalar va inson harakatlarining hokimi ekanligi jihatidan zardushtiylikning dualistik, xrustianlikning bahsli va ancha shubhali (Troitsa, ya'ni xudoning uch qiyofali ekanligi) monoteizmidan ko'ra islomning Allohiga ancha yaqindir. Turklar islomni qabul qilar ekan, unda yuksak madaniyatni, urush va tinchlik borasida o'z qarashlariga muvofiqlikni, jahon hokimiyati va mafkuralarini topdilar.

Mixail Siriyskiy: "Turklar uch sababga ko'ra, arablar bilan tez va oson birlashdilar va islomni qabul qildilar:

Birinchi sabab shuki, turklar azaldan va doimo yagona xudoga e'tiqod qilib kelganlar. Ular ilgarigi o'lkalari (ya'ni, Markaziy Osiyo)da yashaganlarida ham ularning dini haqida kimdir so'rasa, "Ko'k Tangri" deyishadi. Ular fikricha, osmon (Tangri) yagona oliv ma'buddir. Turklar arablar ham xuddi o'zlariga o'xshab yagona xudoga e'tiqod qilishlarini bilgach, islomni qabul qilishdi.

Ikkinchi sababi shuki, turklar birinchi marta Sosoniylar davrida Marg'iyona (hozirgi Turkmanistonda)ga kirib keldilarva o'nashdilar. Qachonki arab xalifaligi hududlari bu yerlarga yetib kelgach, mazkur turklar ularga qo'shilganlar. Saljuqiy turklar keyinchalik bu yega kelganlarida o'z qabiladoshlarini uchratdilar. Ularning tillari o'zaro hamohang edi. Shunga ko'ra ularga ergashib bular ham islomni qabul qildilar. Qolaversa, Muhammad (s.a.v.) butparastlikni tashlab musulmon bo'lganlarga ko'p narsa va'da qilganligi ham turklarning bu dinga o'tishlariga sabab bo'ldi.

Uchinchi sabab shuki, qachonki arablar turklarni greklar (vizantiyaliklar) bilan urushda o'zlariga yollanma jangchi sifatida qabul qildilar. Shunda turklar islom dinini tanidilar va qabul qildilar. Mana shu uch sababga ko'ra, turklar islomiyatni qabul

⁸ O'sha asar. 27-29-betlar.

⁹ Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. T.: Sharq mash'ali, 1993, 66-70-betlar.

qilib, arablar bilan yagona millatga birikdilar”¹⁰ deganda qanchalar haq edi. Ayni paytda xristian olimining bu haqli e’tirofi naqadar hayratlanarli va ajoyibdir.

Islomni qabul qilgan turklar “Tangri” atamasini “Alloh” kalimasi bilan birgalikda sinonim sifatida ishlata boshladilar. Ayni zamonda bu ikkala atamaning ishlatilishi ma’nosи VI-VIII asrlardagi “Tangri” atamasidan biroz farq qiladi. Chunki bu davrda ushbu atama “Turk Tangrisi” ma’nosini ham anglatgan. Masalan, O’rxun-Enasoy bitiklarida Bilga xoqon nomidan: “Turk Tangrisi turk millati yo‘q bo‘lmasin, deya otam Eltarish xoqonni va onam Elbilga xotunni yuksaltirdi”¹¹ deb aytildi. Ko‘rinadiki, turk xoqonlari va xalqi juda dindor va millatchi bo‘lib, Tangrining o‘zlarini himoya qilishiga, shu maqsadda xonlarni bor etganiga samimiyat bilan ishonishgan. Bu jihat bilan Yahudiylik dinidagi Yahvega o‘xshab ketadi. Lekin bu millatchilikni mutlaqlashtirmaslik kerak. Uni ko‘proq millatni sevish va boshqa millatlardan farqlash ma’nosida tushunish lozim, sababi turklar hech qachon boshqa millatlarga nisbatan na milliy van a diniy dushmanlik kayfiyatida bo‘lmasanlar, aksincha, xoqonlik tarkibidagi boshqa qabila va xalqlar bilan doimo tinch-totuv yashashga intilganliklariga tarix guvoh.

Shu tariqa, islom dini ilgari asosan tangrichilikka e’tiqod qilgan turkiy xalqlarda milliy dinga aylanib, mazkur dindan qaytish holatlari deyarli kuzatilmagan. Hozirgi kunda turkiy xalqlarning 90 foiz atrofida guruhi islom dinidadirlar.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, Tangrichilik dini dunyodagi eng qadimiy jahon dinlaridan biri bo‘lib, uning asosiy mohiyati monoteistik xarakterga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi tadqiqotchilar, bu dinni ibridoyn din shaklaridan biri yoki ularning murakkab umumlashmasi, sehrgarlik yohud shamanizm ham emas deb e’tirof etadilar. Buni tarixiy manbalar va tadqiqotchillarning xulosalari tasdiqlaydi. U keyingi mingylliklar davomida ham o‘zining yakkaxudolik xususiyatlarini saqlab qoldiki, bu keyinchalik turkiylarning islomiyatga o‘tishlariga sabab bo‘ldi.

Tangrichilik ta’limotini yorituvchi diniy manbalar yo‘q yoki saqlanib qolmagan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu din ta’limoti og‘zaki ravishda avloddan-avlodga o‘tib kelganligini ta’kidlashadi. Kerakli asosiy ma’lumotlar tarixiy manbalar, qisman etnografik manbalardan olindi.

Turkiylar orasiga asosan VIII-IX asrlardan boshqa dinlar, jumladan, buddaviylik, moniylik, xristianlik, yahudiylik kabi dinlar kirib keldi. Lekin ularning barchasi tangrichilikni siqib chiqara olmadı. Sababi ular turkiylar tabiatи va milliy ruhiga zid

¹⁰ Chronique de Michel le Syrien. Ed. par J.-B. Chabot. Paris, 1910, t. IV, p. 540-541.

¹¹ Sodiqov Qosimjon. Ko‘k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. – T.: TDSHI, 2004. -114-b.

edi. Buning ustiga X asrdan boshlab islomlashish jarayoni kuchayib ketdiki, bu dinlar o’z o’rnini ularga bo‘shatib berdi;

Turkiylarning tangrichilikdan islomiyatga ancha ilgari, ya’ni arablarning Turkiston o’lkasiga kirib kelgan davrdan boshlansa-da, ommaviy o‘tishlari X asrdan boshlab kuchaydi. Islomiyatning keyingi butun tarixi davomida turkiylar dinning himoyachisi sifatida tarix sahifalaridan joy oldilar. Hatto, XIII asrdan boshlab butun dunyoning kattagina qismini egallagan, ayni paytda, turkiy xalqlar ichida eng qolog‘i bo‘lmish mo‘g‘ullar ham shu asrdayoq islomlashishga yuz tutdilar.

REFERENCES

1. Мифы народов мира. Энциклопедия в 2-х т. – М.: Сов. энциклопедия, 1992. – Т. 2., с. 500
2. Древнетюркский словарь. Л., 1969.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 662-b
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 90-b.
5. Садри Максуди Арсал. Тюркская история и права. – Казань: Фэн, 2002, С.58-59.
6. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: “Yurist-Media markazi”, 2008. – 21-b
7. Бичурин Н. Я. Бичурин [Иакинф]. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М-Л.: АН СССР, 1950. Т. I, С. 270-271.
8. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. T.: Fan, 2007, - 83-b.
9. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T.: Cho‘lpon, 1995. – 95-96-betlar.
10. Chronique de Michel le Syrien. Ed. par J.-B. Chabot. Paris, 1910, t. IV, p. 566-571